| Murodov Orif Jumayevich                                                                                                                                                          |      |
| TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI .....                                                                                                      | 1497 |
| Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna                                                                                                                                            |      |
| ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ,<br>ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ .....                                        | 1502 |
| Киличева Ф.Б.                                                                                                                                                                    |      |
| RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH .....                                                                                                 | 1507 |
| Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li                                                                                                                        |      |
| ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ<br>В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН .....                                                                                 | 1511 |
| Маденова Эльмира Нзаматдиновна                                                                                                                                                   |      |
| ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ<br>УЗБЕКИСТАН .....                                                                                                 | 1516 |
| Мансуров Обид Зайнидинович                                                                                                                                                       |      |
| РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY<br>QARASHLAR.....                                                                                         | 1522 |
| Xamrakulov Azamat Baxritdinovich                                                                                                                                                 |      |
| TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....                                                                                                       | 1528 |
| Jalilov Jamshid G'anijonovich                                                                                                                                                    |      |
| SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK<br>MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI .....                                   | 1534 |
| To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich                                                                                                                |      |
| YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....                                                                                             | 1540 |
| Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li                                                                                                                                              |      |
| THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION .....                                                                                                                   | 1545 |
| Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna                                                                                                                                               |      |
| MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI .....                                                                                                    | 1549 |
| Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li                                                                                                                                              |      |
| IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI .....                                                                                                              | 1554 |
| Xashimova Salima Nigmatullayevna                                                                                                                                                 |      |



|                                                                                                                                                  |      |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....                                            | 1558 |
| <b>B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich</b>                                                                                                |      |
| BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL .....                                  | 1563 |
| <b>Kurbanova Mohinur Xabib qizi</b>                                                                                                              |      |
| KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....                                           | 1568 |
| <b>Mustafakulova Nodira Primovna</b>                                                                                                             |      |
| BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI .....                                                               | 1572 |
| <b>Qodirov Baxodir Qudratovich</b>                                                                                                               |      |
| SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI .....                                | 1577 |
| <b>Normuradov Nurbek Sunatilloevich</b>                                                                                                          |      |
| ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ .....                                                   | 1581 |
| <b>Шарахметов Шерзад Шаазимович</b>                                                                                                              |      |
| O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....                                       | 1588 |
| <b>Qodirov Baxodir Tursunovich</b>                                                                                                               |      |
| IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....                                                                                                | 1592 |
| <b>Feruz Mirzoyeva Salimovna</b>                                                                                                                 |      |
| YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....                                           | 1597 |
| <b>Djalilov Sardor Sadilloevich</b>                                                                                                              |      |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI ..... | 1601 |
| <b>Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich</b>                                                                                                        |      |
| DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT .....                                                 | 1606 |
| <b>Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi</b>                                                                                                    |      |
| FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH .....                       | 1609 |
| <b>Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li</b>                                                                                                           |      |
| SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....                                                                                                                  | 1616 |
| <b>Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich</b>                                                                   |      |
| O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....                                                      | 1620 |
| <b>Mardiyev Akrom Djumaboyevich</b>                                                                                                              |      |
| BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....                                | 1627 |
| <b>S.J. Sultanov</b>                                                                                                                             |      |
| TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....                                     | 1633 |
| <b>Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich</b>                                                                                                         |      |
| BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQUARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI .....                                      | 1639 |
| <b>Xazratkulov Niyoz Namazbayevich</b>                                                                                                           |      |
| STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS .....                                                                                  | 1644 |
| <b>Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev</b>                                                                                                      |      |
| AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI .....                                                                             | 1648 |
| <b>Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li</b>                                                                                                           |      |
| TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI .....                                                                                            | 1652 |
| <b>Mahmudova Chinora Anvar qizi</b>                                                                                                              |      |
| XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI .....                                                      | 1657 |
| <b>Nizamov Xusniddin Fazliddinovich</b>                                                                                                          |      |



|                                                                                                                              |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING<br>EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)..... | 1663 |
| Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li                                                                                          |      |
| MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI<br>RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....                   | 1670 |
| Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich                                                                                         |      |
| TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI<br>KO'RSATKICHLAR.....                                     | 1674 |
| O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li                                                                                            |      |





# SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)



**Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti, assistent-o'qituvchi

Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Email: [nodirbek.jumaniyazov@430gmail.com](mailto:nodirbek.jumaniyazov@430gmail.com)

ORCID: 0009-0003-3518-1382

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o'zgarishlariga ta'sir etuvchi omillar Xorazm viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda sanoat tarkibining o'zgarishlari hal qiluvchi omil hisoblanadi. Maqolada so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi hamda Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari asosida sanoat hajmining o'sishi, korxonalar sonining ko'payishi va tarmoqlar bo'yicha tarkibiy siljishlar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, investitsiyalar oqimi, infratuzilma rivoji, texnologik modernizatsiya, mehnat resurslari salohiyati, hududiy klasterlar va eksport yo'nalishlari kabi omillar sanoat tarkibining sifat jihatidan o'zgarishiga ta'siri nuqtayi nazaridan baholangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi yil sayin ortib bormoqda, biroq yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi past darajada saqlanib qolmoqda. Mintaqaning tabiiy resurslari, xomashyo bazasi va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish orqali tarkibiy diversifikatsiyani chuqurlashtirish zarur. Maqola yakunida mintqa sanoatini barqaror rivojlantirish uchun strategik tavsiyalar — investitsion faollikni kuchaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, klaster tizimini rivojlantirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish kabi yo'nalishlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat tarkibi, mintaqaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, tarkibiy o'zgarishlar, Xorazm viloyati, investitsiya, texnologik modernizatsiya, klaster, eksport.

**Abstract.** This article analyzes the factors influencing industrial structural changes in ensuring the sustainable development of regional economies, using the Khorezm region as a case study. The relevance of the research lies in the fact that structural transformations in industry serve as a decisive factor in determining the qualitative indicators of economic growth. Based on the data from the State Statistics Agency of Uzbekistan and the Khorezm Regional Department of Statistics, the study thoroughly examines industrial growth, the increase in the number of enterprises, and sectoral shifts. Moreover, it evaluates the impact of investment inflows, infrastructure development, technological modernization, labor potential, regional clusters, and export directions on the qualitative transformation of industrial structures. The results show that although industrial output in the Khorezm region has been growing annually, the share of high-tech industries remains relatively low. The article concludes that deepening structural diversification through the efficient use of natural resources, raw materials, and human potential is essential. Strategic recommendations are proposed to ensure sustainable industrial development in the region, including strengthening investment activity, accelerating technological modernization, developing cluster systems, and expanding export-oriented production.

**Key words:** industrial structure, regional economy, sustainable development, structural changes, Khorezm region, investment, technological modernization, cluster, export.



**Аннотация.** В статье анализируются факторы, влияющие на структурные изменения промышленности в контексте устойчивого развития региональной экономики на примере Хорезмской области. Актуальность исследования заключается в том, что структурные преобразования в промышленности являются ключевым фактором, определяющим качественные показатели экономического роста. На основе данных Агентства государственной статистики Республики Узбекистан и Управления статистики Хорезмской области проведён углублённый анализ роста объёмов промышленного производства, увеличения числа предприятий и отраслевых сдвигов. Кроме того, оценивается влияние потоков инвестиций, развития инфраструктуры, технологической модернизации, трудового потенциала, региональных кластеров и экспортных направлений на качественные изменения структуры промышленности. Результаты анализа показывают, что в Хорезмской области наблюдается ежегодный рост промышленного производства, однако доля высокотехнологичных отраслей остаётся на низком уровне. Сделан вывод о необходимости углубления структурной диверсификации за счёт эффективного использования природных ресурсов, сырьевой базы и трудового потенциала. В заключение предложены стратегические рекомендации по обеспечению устойчивого развития промышленности региона, включающие усиление инвестиционной активности, ускорение технологической модернизации, развитие кластерной системы и расширение экспортно-ориентированного производства.

**Ключевые слова:** промышленная структура, региональная экономика, устойчивое развитие, структурные изменения, Хорезмская область, инвестиции, технологическая модернизация, кластер, экспорт.

## KIRISH

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish masalasi bugungi global o'zgarishlar davrida eng muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biriga aylandi. Chunki iqtisodiy barqarorlik faqat yalpi o'sish sur'atlari bilan emas, balki sanoat tarmoqlarining tarkibiy muvozanati, texnologik yangilanish darajasi va mehnat unumdorligining uzluksiz oshib borishi bilan belgilanadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, barqaror o'sishga erishgan mamlakatlar — Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya va Xitoy — o'z sanoat tarkibini chuqur diversifikatsiya qilgan, yuqori texnologiyali tarmoqlarga asoslangan hamda ichki resurslardan samarali foydalangan davlatlardir [1].

Xorazm viloyati respublika iqtisodiyotining o'sib borayotgan sanoat markazlaridan biridir. Viloyatda 2023-yilda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 21,2 trillion so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 6,1% o'sish kuzatilgan. 2024-yilning birinchi yarmi yakunlariga ko'ra esa sanoat mahsulotlari hajmi 18,2 trillion so'mga yetgan, bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26% o'sish demakdir. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu o'sish asosan xomashyo va past texnologiyali tarmoqlar hisobiga amalga oshmoqda, yuqori texnologiyali hamda qayta ishlovchi tarmoqlar ulushi nisbatan past darajada qolmoqda [2].

Hududda 4100 dan ortiq sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda, ularning 85% dan ortig'i kichik biznes subyektlari hisoblanadi. Ushbu korxonalar mintaqaning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishda muhim o'rin tutmoqda, biroq ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifati jihatidan hali to'liq raqobatbardosh darajaga chiqish imkoniyatlari mavjud. Bu esa sanoat tarkibida yanada muvozanatli rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi hozircha 0,03% atrofida bo'lsa-da, bu ko'rsatkichni oshirish uchun mavjud ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish, ilmiy-texnik salohiyatni faollashtirish va innovatsion loyihalarni kengaytirish istiqbollari mavjud [3].

Sanoat tarkibiy o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar murakkab tizimni tashkil etadi. Ular orasida investitsiyalar hajmi, infratuzilma rivoji, texnologik modernizatsiya darajasi, xomashyo bazasidan foydalanish samaradorligi, hududiy tadbirkorlik muhitining sifati, eksport salohiyati hamda mehnat resurslari va malaka darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. "Xazorasp" erkin iqtisodiy zonasi va "Urganch industrial texnoparki" doirasida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari esa ishlab chiqarishning texnologik tarkibini yangilash, innovatsion klaster tizimlarini shakllantirish va eksport yo'nalishlarini kengaytirish borasida ijobiy natijalar bermoqda [4].

Xorazm viloyati iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida mavjud tizimli cheklovlar bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda. Energiya ta'minoti va transport-logistika infratuzilmasini yaxshilash, eksport geografiyasini kengaytirish hamda moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli, mintaqaviy sanoat rivojlanishida yangi o'sish nuqtalarini aniqlash, tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish istiqboldagi ilmiy-amaliy vazifalar sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarida kechayotgan tarkibiy o'zgarishlarni tizimli tahlil qilish, ularning iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillarini aniqlash hamda ushbu jarayonlar asosida hududning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan prognoz va strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iborat.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat tarkibiy o'zgarishlari va ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri masalasi xalqaro hamda mahalliy iqtisodiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Ushbu masala doirasidagi adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sanoatning strukturaviy transformatsiyasi iqtisodiy o'sish modelining sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Xalqaro miqyosda Trofimov I.D. tomonidan o'tkazilgan panel ma'lumotlar tahlilida sanoat tarkibidagi o'zgarishlar bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida mustahkam ijobiy korrelyatsiya mavjudligi isbotlangan. Uning fikricha, tarkibiy siljishlar ishlab chiqarish resurslarining yuqori samarali tarmoqlarga oqimini tezlashtiradi va shu orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shunga o'xshash xulosaga Zhou C. ham Sustainability jurnalida chop etilgan maqolasida kelgan. U industrial tuzilma va bandlik tarkibi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, barqaror o'sish uchun yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushini oshirish zarurligini ta'kidlagan.

Shuningdek, OECD tomonidan tayyorlangan Industrial Outlook hisobotida global sanoatning tarkibiy transformatsiyasi innovatsion rivojlanish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liq ekanini qayd etiladi. OECD ekspertlari fikricha, mamlakatlar sanoat tarkibini modernizatsiya qilmas ekan, ularning iqtisodiy o'sish sur'atlari qisqa muddatda yuqori bo'lishi mumkin, biroq uzoq muddatda barqarorlikni ta'minlay olmaydi. UNIDO Industrial Development Reportda esa industrial transformatsiya va texnologik diversifikatsiya inklyuziv hamda barqaror iqtisodiy o'sishning poydevori sifatida e'tirof etiladi. Hisobotda ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish va innovatsion klasterlar asosida birlashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu yo'nalishda qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Iqtisodchilarning "Raqamli iqtisodiyot va sanoatni diversifikatsiya qilish" asarida raqamli texnologiyalar sanoat tarkibini chuqur qayta shakllantiruvchi omil sifatida baholangan. Mualliflar fikricha, mintaqalarda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlari va tahliliy platformalarni joriy etish sanoatning texnologik samaradorligini keskin oshiradi. Trofimov I.D. tadqiqotida iqtisodiy o'sishning Cobb–Douglas ishlab chiqarish funksiyasi asosida modellashuvi keltirilgan bo'lib, unda kapital, mehnat va texnologik koeffitsiyentlarning o'zaro ta'siri sanoat tarkibiy o'zgarishlarining barqarorlikka ta'sirini aniq ifodalaydi.

Shuningdek, Fei–Ranis iqtisodiy o'sish modeli doirasida mehnatning past samarali tarmoqlardan yuqori samarali sohalarga o'tishi mintaqaviy iqtisodiyotda tarkibiy modernizatsiyaning asosiy mexanizmi sifatida talqin etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarida ham iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida sanoat tarkibining muvozanatli o'zgarishlarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Xorazm viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlarda mintaqa sanoatining hozirgi tarkibida agrosanoat va past texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlari ustunligi qayd etilgan. Shu bilan birga, "Xazorasp EIZ"da amalga oshirilayotgan kimyo, farmatsevtika va to'qimachilik loyihalari orqali viloyatda sanoatning yuqori qo'shimcha qiymatli segmentlari shakllanayotganini ta'kidlab o'tilgan. Mahalliy iqtisodchilar — Xasanov U., Po'latov B. va Ahmedov A. tomonidan olib borilgan tahlillarda mintaqalarda sanoatning barqaror rivojlanishiga eng katta ta'sir etuvchi omil investitsiya muhitining sifati va infratuzilma ta'minoti ekanini aniqlangan.

Tahlil qilingan adabiyotlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, mintaqaviy sanoatni barqaror rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

- investitsiya oqimlarini diversifikatsiya qilish va infratuzilmani kengaytirish;
- yuqori texnologiyali hamda innovatsion ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash;
- klaster tizimlarini shakllantirish va eksport salohiyatini oshirish;
- mehnat resurslarining malaka darajasini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish [13].

Shu nuqtayi nazardan, Xorazm viloyati sanoatining tarkibiy o'zgarishlarini chuqur o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu mintaqada barqaror iqtisodiy o'sish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun zarur ilmiy asosni yaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning ilmiy-metodologik yondashuvi mintaqaviy iqtisodiy tizimni kompleks tahlil qilish, sanoat tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash hamda ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimlashtirishga asoslanadi. Bunda asosiy e'tibor Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyatining barqaror rivojlanishidagi tarkibiy jarayonlarni empirik va nazariy asoslarda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari mintaqa sanoatini boshqarish, strategik rejalashtirish va investitsion siyosatni takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Metodologik jihatdan ishda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, trend dinamikasi, qiyosiy tahlil, tizimli hamda strukturaviy yondashuv uslublaridan foydalanilgan. Har bir yondashuv sanoat tarkibining ma'lum bir jihatini o'rganishga imkon bergan. Masalan, strukturaviy yondashuv sanoat tarmoqlari ulushining o'zgarishini aniqlash uchun, trend tahlili esa 2018–2024-yillar oralig'ida ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlarini o'lchash uchun qo'llanilgan [5].



Tadqiqotda asosiy ma'lumot manbalari sifatida quyidagilar tanlangan:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining 2020–2024-yillar sanoat tahlil hisobotlari;
- Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari (sanoat korxonalari soni, ishlab chiqarish hajmi, texnologik tarkib darajasi, yuqori va past texnologiyali tarmoqlar ulushi);
- Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2023–2025-yillardagi hududiy investitsiya loyihalari ma'lumotlari;
- OECD Industrial Outlook (2024), World Bank World Development Indicators (2024) hamda UNIDO Industrial Development Report (2023) kabi xalqaro manbalardan olingan solishtirma ko'rsatkichlar.

Ushbu xalqaro ma'lumotlar mintaqaviy sanoat tarkibining rivojlanish tendensiyalarini global mezonlar bilan taqqoslash imkonini bergan.

Empirik tahlilning boshlang'ich bosqichida Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 2018–2023-yillardagi dinamikasi o'rganilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, viloyat sanoat mahsulotlari hajmi 2018-yilda 9,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 21,2 trln so'mga yetgan, ya'ni besh yil davomida qariyb 2,3 barobarga oshgan. Shu davrda sanoat korxonalari soni esa 2,8 mingdan 4,1 mingtaga ko'paygan, bu esa hududiy tadbirkorlik faolligining oshganini ko'rsatadi [6].

Tadqiqotda sanoat tarkibiy o'zgarishlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda tarkibiy indikatorlar tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim quyidagi asosiy bloklardan iborat:

Investitsion omillar bloki — asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi, "Xazorasp" EIZ va "Urganch" texnoparki loyihalarining hajmi;

Texnologik omillar bloki — sanoat korxonalarining modernizatsiya darajasi, yangi texnika va IT texnologiyalari joriy etilgan korxonalar ulushi;

Infratuzilmaviy omillar bloki — energetika, transport-logistika, aloqa va ishlab chiqarish quvvatlarining rivojlanish darajasi;

Mehnat resurslari bloki — bandlik ko'rsatkichlari, sanoat tarmoqlaridagi mehnat unumdorligi va malaka darajasi;

Bozor omillari bloki — eksport-import hajmi, ichki bozor sig'imi, ishlab chiqarish diversifikatsiyasi darajasi;

Institutsional omillar bloki — davlat dasturlari, normativ-huquqiy asoslar hamda sanoatni rag'batlantirish mexanizmlari [7].

Masalan, 2024-yilda Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan 698 ta investitsiya loyihasining umumiy hajmi 6,4 trln so'mni tashkil etib, natijada 15 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda. Bu fakt investitsion faollikning sanoat tarkibiga bevosita ta'sirini ko'rsatadi [8].

Tahlilda xalqaro metodikalar, xususan, UNIDO Industrial Performance Index (IPI) ham qo'llanilgan. Mazkur indeks bo'yicha indikatorlar — "sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'ati", "mehnat unumdorligi", "eksport diversifikatsiyasi" — Xorazm viloyati uchun moslashtirilgan. Bu indikatorlar mintaqa sanoatining barqarorlik darajasini baholashda qo'llanilgan [9].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati so'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirib, respublika iqtisodiyotida barqaror o'sish manbalaridan biriga aylangan. Shu bilan birga, sanoat tarkibidagi o'zgarishlar son jihatdan ijobiy bo'lsa-da, sifat jihatidan — ya'ni texnologik yangilanish, mahsulot diversifikatsiyasi va eksport salohiyati nuqtayi nazaridan — hali to'liq shakllanmagan. Quyidagi jadvalda 2019–2024-yillar davomida Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarish hajmi, korxonalar soni va yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Xorazm viloyatida sanoat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari (2019–2024-yillar) [10]

| Yil  | Sanoat mahsulotlari hajmi, trln so'm | O'sish sur'ati, % | Sanoat korxonalari soni, dona | Yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi, % | Past texnologiyali tarmoqlar ulushi, % |
|------|--------------------------------------|-------------------|-------------------------------|------------------------------------------|----------------------------------------|
| 2019 | 10,2                                 | 105,1             | 2 940                         | 0,02                                     | 58,4                                   |
| 2020 | 12,5                                 | 106,4             | 3 210                         | 0,02                                     | 57,1                                   |
| 2021 | 14,8                                 | 107,3             | 3 545                         | 0,02                                     | 56,8                                   |
| 2022 | 17,1                                 | 108,6             | 3 832                         | 0,03                                     | 56,2                                   |
| 2023 | 21,2                                 | 106,1             | 4 102                         | 0,03                                     | 55,9                                   |
| 2024 | 18,2                                 | 126,0             | 4 190                         | 0,04                                     | 55,5                                   |





Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2019–2024-yillar davomida Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi 10,2 trillion so'mdan 21,2 trillion so'mgacha yetib, besh yil ichida 2,1 barobar o'sishga erishgan. Ushbu o'sish, asosan, ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining — paxta-tozalash, yog'-moy, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoatlarining izchil rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Shu bilan birga, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushi ham 0,02% dan 0,04% gacha oshgan bo'lib, bu sohada barqaror o'sish dinamikasi shakllanayotganini ko'rsatadi.

Sanoat korxonalari sonining 2019-yildagi 2940 tadan 2024-yilda 4190 tagacha ortgani viloyatda tadbirkorlik muhitining faol rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Kichik ishlab chiqaruvchilarning ulushi 80% dan ortiq bo'lib, bu mintaqada kichik biznesning sanoatni modernizatsiya qilishda muhim o'ringa ega bo'layotganini anglatadi. Ushbu subyektlar uchun texnologik yangilanish, innovatsion yechimlarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlarida keng imkoniyatlar mavjud. Shu bois, viloyat sanoat tarkibi hajman kengayib, sifat jihatdan ham bosqichma-bosqich yangilanib bormoqda.

Sanoat o'sishiga eng katta hissa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash (34,8%), energetika va yoqilg'i tarmoqlari (26,3%) hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish (15,5%) sohalar tomonidan qo'shilmoqda. To'qimachilik, mashinasozlik va kimyo tarmoqlari esa kelgusida yuqori o'sish salohiyatiga ega bo'lgan strategik yo'nalishlar sifatida ko'rilmogda. Ushbu tarmoqlarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ulushni oshirish imkoniyatlari mavjud.

Xorazm viloyatida sanoat rivoji investitsion faollik bilan uzviy bog'liq. 2024-yilda 6,4 trillion so'mlik 698 ta investitsiya loyihasining amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, ular orqali 15,3 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi. "Xazorasp" erkin iqtisodiy zonasi va "Urganch industrial texnoparki" doirasida olib borilayotgan investitsiya tashabbuslari hududda texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirmoqda hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Sanoat tuzilmasida past texnologiyali tarmoqlar ulushi 2019-yildagi 58,4% dan 2024-yilda 55,5% gacha kamaygani ishlab chiqarishning sifat jihatdan yangilanayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon kelgusi yillarda innovatsion va yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hududda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining 40% ga yaqini agrosanoat kompleksiga, 25% i qurilish materiallari va energetika tarmoqlariga, qolgan qismi esa kiyim-kechak, metallga ishlov berish hamda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Ushbu nisbat mintaq iqtisodiyotining bosqichma-bosqich diversifikatsiyalanayotganini ko'rsatib, yaqin yillarda yuqori qo'shimcha qiymatli ishlab chiqarish sohalarining kengayish istiqbollarini belgilaydi (2-jadval).

2-jadval. Xorazm viloyati sanoatining tarmoq tarkibi (2024-yil) [11]

| Tarmoq nomi                                    | Ulushi, % | Asosiy ishlab chiqaruvchi korxonalar                | Eslatma                   |
|------------------------------------------------|-----------|-----------------------------------------------------|---------------------------|
| Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash | 34,8      | "Xorazm Yog'-Moy" AJ, "Urganch Don Mahsulotlari" AJ | Eksportga yo'naltirilgan  |
| Energetika va yoqilg'i                         | 26,3      | "Xorazm IES", "Hududiy elektr tarmoqlari"           | Barqaror ta'minot         |
| Qurilish materiallari ishlab chiqarish         | 15,5      | "Xorazm G'isht", "Urganch Beton"                    | Ichki talab yuqori        |
| To'qimachilik va tikuvchilik                   | 8,6       | "Khorezm Textile Group" MCHJ                        | Eksport salohiyati mavjud |
| Kimyo va farmatsevtika                         | 6,7       | "Xazorasp Chemical" MCHJ                            | Yangi invest loyihalar    |
| Mashinasozlik va metallga ishlov berish        | 5,4       | "Urganch Ekskavator zavodi" MCHJ                    | Import o'rnini bosuvchi   |
| Boshqa tarmoqlar                               | 2,7       | Kichik korxonalar                                   | Mahalliy iste'mol uchun   |

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati iqtisodiyotining tayanchi hali ham qayta ishlovchi past texnologiyali tarmoqlar bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, kimyo, to'qimachilik va mashinasozlik yo'nalishlari asta-sekin o'sish bosqichiga kirib bormoqda, bu esa tarkibiy diversifikatsiya jarayonining boshlang'ich bosqichini ifodalaydi.

Sanoat o'sishining barqaror davom etishi uchun viloyatda energetika, transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, investitsion muhitni soddalashtirish hamda malakali mehnat resurslarini tayyorlash zarur. Bunda davlat tomonidan soliq imtiyozlari, klaster tizimlarini qo'llab-quvvatlash va eksportni rag'batlantirish dasturlari muhim o'rin tutadi [12].

Umuman olganda, Xorazm viloyatining 2024-yilgi sanoat ko'rsatkichlari barqaror o'sish dinamikasini namoyon etmoqda, biroq tarkibiy o'zgarishlarning chuqurligi va texnologik modernizatsiya tezligi hali yetarli





emas. Shu sababli, kelgusidagi bosqichda sanoat tarmoqlarining yuqori texnologiyali segmentlarini rivojlantirish, klaster integratsiyasini kuchaytirish va innovatsion investitsiyalar oqimini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sanoat tarkibiy o'zgarishlari muhim o'rin tutmoqda. So'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmining 10,2 trillion so'mdan 21,2 trillion so'mgacha oshgani mintaqaning ishlab chiqarish salohiyati izchil mustahkamlanayotganini bildiradi. Shu bilan birga, sanoat korxonalari sonining 2,9 mingdan 4,1 mingtaga yetgani tadbirkorlik muhitining faol rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud o'sish sur'atlari barqaror xarakter kasb etib, endilikda bu jarayonni sifat jihatidan chuqurlashtirish — ya'ni texnologik modernizatsiya, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kengaytirish yo'nalishida jadallashtirish zarur. Yuqori texnologiyali tarmoqlarning 0,03–0,04% atrofidagi ulushi mintaqada ushbu yo'nalishning yangi bosqichda shakllanayotganini, innovatsion ishlab chiqarishlarga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni kechayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba va milliy strategik hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoatning tarkibiy transformatsiyasi barqaror iqtisodiy o'sish uchun kuchli asos bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda ishlab chiqarish resurslarini yuqori samaradorlikka ega tarmoqlarga yo'naltirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va eksportni diversifikatsiya qilish mintaqaviy raqobatbardoshlikni yanada oshiradi.

Tadqiqotda aniqlangan omillar — investitsiyalar, infratuzilma, texnologik modernizatsiya, mehnat resurslari sifati, klaster tizimlari, eksport va institutsional muhit — o'zaro uyg'unlikda rivojlanib, sanoat tarkibining barqaror shakllanishiga zamin yaratmoqda. 2024-yilda amalga oshirilayotgan 6,4 trillion so'mlik 698 ta investitsiya loyihasi nafaqat ishlab chiqarish hajmini kengaytirib, balki tarmoqlar diversifikatsiyasini ham chuqurlashtirgan. "Xazorasp erkin iqtisodiy zonasi"da kimyo, farmatsevtika, metallga ishlov berish va to'qimachilik yo'nalishlarida joriy etilgan loyihalar mintaqaning texnologik yangilanish bosqichiga o'tganini ko'rsatmoqda [14].

Energetika quvvatlari, logistika tizimi, mehnat malakasi va ilmiy-texnologik integratsiya yo'nalishlarida mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish sanoatni modernizatsiya qilish jarayonini tezlashtiradi. Shu maqsadda, mintaqa sanoatini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan prognozli yo'nalishlar ishlab chiqildi [15].

Investitsion muhit yanada takomillashib, xususiy sektor va davlat sheriklik mexanizmlarining kengayishi kutilmoqda. "Xazorasp EIZ" va "Urganch industrial texnoparki" doirasida yangi ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish, xorijiy investorlar uchun soddalashtirilgan imtiyozlar tizimi yaratish orqali yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish istiqbollari kengayadi.

Texnologik modernizatsiya yo'nalishida raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, ERP va IoT texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifati sezilarli darajada oshadi. "Raqamli sanoat" dasturi doirasida kichik korxonalar uchun subsidiyalar va grantlar tizimi kengaytirilsa, ular ham texnologik yangilanish jarayoniga faol qo'shila oladi.

Sanoat klasterlari va tarmoq integratsiyasining rivojlanishi mintaqaning iqtisodiy muvozanatini ta'minlaydi. "Agrosanoat", "Kimyo-farmatsevtika", "To'qimachilik" va "Mashinasozlik" klasterlari negizida ishlab chiqaruvchilar, ilmiy markazlar, ta'lim muassasalari va logistik xizmatlar o'rtasida sinergetik hamkorlik kuchayadi.

Mehnat salohiyati sohasida UrDU, TDIU va Turin Polytechnic University in Tashkent bilan hamkorlikda tashkil etiladigan "Sanoat texnologiyalari akademiyasi" malakali kadrlar tayyorlash, amaliy laboratoriyalarni rivojlantirish va texnologik treninglar o'tkazish orqali inson kapitalining sifatini oshiradi.

Eksport salohiyatining kengayishi istiqbolda Xorazm viloyatini mintaqaviy eksport markaziga aylantiradi. Transport-logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi, Urganch aeroporti va temir yo'l orqali yangi eksport yo'nalishlarining yo'lga qo'yilishi mahsulotlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlaydi. "Made in Khorezm" brendining joriy etilishi esa viloyat mahsulotlarining xalqaro e'tirofini mustahkamlaydi.

Ekologik va "yashil" sanoat yondashuvlarini kengaytirish mintaqaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Energiya tejamkor texnologiyalarni, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy etish orqali sanoatning ekologik va iqtisodiy samaradorligi oshadi.

Institutsional boshqaruv sohasida "Sanoatni rivojlantirish agentligi" faoliyatini kengaytirish, natijadorlik asosida monitoring tizimini joriy etish va investorlar uchun "bir darcha" prinsipi asosidagi xizmatlar mexanizmini takomillashtirish rejalashtirilmoqda.

Xorazm viloyatining iqtisodiy barqarorligi sanoat tarkibining innovatsion, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan tuzilishga ega bo'lishiga bevosita bog'liq. Ushbu metodik yo'nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali 2025–2030-yillarda Xorazm viloyati O'zbekistonning innovatsion va eksport markazlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Trofimov I.D. The Effects of Structural Change on Economic Growth: A Panel Data Analysis // ResearchGate. – 2023. – [Elektron manba]. URL: <https://www.researchgate.net/publication/377807216> (murojaat sanasi: 25.10.2025).
2. Zhou C. Industrial Structure, Employment Structure and Economic Growth // Sustainability. – 2023. – Vol. 15, No. 4: 2890. – DOI: 10.3390/su15042890.
3. OECD. Industrial Outlook 2024: Structural Transformation and Innovation. – Paris: OECD Publishing, 2024. – 214 b.
4. UNIDO. Industrial Development Report 2023: Transforming Industry for a Sustainable Future. – Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2023. – 280 p.
5. Yang H. Modeling Analysis of the Impact of Economic Growth Fluctuation on Enterprise Industrial Structure // Proceedings of the EMCG 2020 Conference. – Clausius Press, 2020. – P. 115–122.
6. European Journal of Economics, Finance and Business Development. Econometric Assessment of the Impact of Industry on Economic Growth in the Republic of Uzbekistan. – Vol. 2, Issue 4. – European Science Publishing, 2024. – P. 45–60.
7. Ergashev Sh. Raqamli iqtisodiyot va sanoatni diversifikatsiya qilish. – Toshkent: Innovation Press, 2024. – 276 b.
8. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. Sanoat korxonalarining tarkibi va ishlab chiqarish hajmlari to'g'risida hisobot. – Urganch: Xorazmstat nashriyoti, 2024. – [Rasmiy ma'lumotlar to'plami].
9. Davlat statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2023–2024-yillar). – Toshkent: Stat.uz, 2024. – [Elektron manba]. URL: <https://stat.uz/uz> (murojaat sanasi: 25.10.2025).
10. ResearchGate. O'zbekistonda sanoatni rivojlantirish va shakllantirishda klasterlarni tashkil etishning hududiy xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida). – 2024. – [Elektron manba]. URL: <https://www.researchgate.net/publication/377307186> (murojaat sanasi: 25.10.2025).
11. Xasanov U., Po'latov B., Ahmedov A. Hududiy sanoat rivoji va investitsiya faolligi // Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali. – Toshkent: TDIU, 2024. – №3. – B. 102–110.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF–60-son Farmon. "2022–2026-yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida." – Toshkent, 28-yanvar 2022-yil. – Lex.uz ma'lumotlar bazasi.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF–158-son Farmon. "Sanoatni modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida." – Toshkent, 2023-yil, 30-may. – Lex.uz ma'lumotlar bazasi.
14. UNIDO. Industrial Performance Index (IPI) – Methodological Framework 2023. – Vienna: UNIDO Publications, 2023. – 78 p.
15. OECD. Regional Industrial Competitiveness: Policy Perspectives 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 156 p.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>